

**Xo'jaobod tuman axborot kutubxona markazi
Axborot bibliografiya xizmati**

**XO'JAOBOD DIYORINING,
ERKA SHOIRASI**



**(Ijodkor shoira, publitsis va mohir tarjimon Zamira
Egamberdiyeva tavalludining 65 yilligiga)**

ESDALIK

Xo'jaobod- 2025.

*Biz bilan hamnafas yashayotgan ilmli,
iboli ayollarimiz, qizlarimiz haqida yozinglar.
Ularning xayotidan boshqalar ibrat olsun
Shavkat Mirziyoev*

KIRISH

Andijon jahonga Bobur va Mashrabni, Nodirabegim va Samarbonuni, Cho'lpon va Xabibiyni, Oraziy va Xayratiyni, teatr va kino san'atining yorqin yulduzlari Abbas Bakirov, Mukarramaxonim, Fattoxon Mamadaliyev va Erkin Komilov, Abdumutal Abdullayev, Ne'mat Orif, Sotvoldi Rajabov, To'xtash Ashurov singari iste'dodli yozuvchi, shoir va jurnalistlarni yetishtirib berdi. Ana shunday Xo'jaobod diyori yetishtirib bergan serqirra ijodkor Mashhur o'zbek – o'tkir hissiyotli shoirasi, jurnalist va tarjimon Zamira Egamberdiyeva. Ushbu bibliografik qo'llanma orqali ushbu ijodkorning faoliyati bilan yaqindan tanishishingiz mumkin.

HAYOTI VA FAOLIYATI

Shoira Zamira Egamberdiyeva. Bu nom o'zbek adabiyoti, publitsistika va tarjima dunyosida allaqachonlar o'z o'rnini topgan, o'zidan o'chmas iz qoldirgan katta ijod va katta taqdir egasi. Zamira Egamberdiyeva 1960 yili 8 iyun kuni Andijon viloyatining Xo'jaobod tumani Qorabuloq qishlog'ida tug'ilgan. Andijon davlat universitetining o'zbek tili va adabiyoti fakultetida o'qigan. Ish faoliyatini dastlab Xo'jaobod tumanidagi 7-umumta'lim maktabida boshlagan. Andijonga bo'lgan mehri, tug'ilgan tuprog'iga bo'lgan muxabbati shoiraning satrlariga xam ko'chgan. Bu satrlar shoiradan qolgan qator kitoblar, adabiyotimiz, she'riyatimiz muxlislari uchun Andijonning erka qizidan meros edi aslida.

SHoiraning "Eng chiroyli gul", "Dengizning dardi", "Dil daftarin varaqlaganda", "Baxtiyor qushlar", "Qizlarimning sarposi", "Dadamning duosi" singari she'riy hamda publitsistik kitoblari chop etilgan. Zamira Egamberdiyeva xar kuni she'r yozardi. Tomoshabin diqqatini uzmay kutib tomosha qilgan qator serial va filmlar tarjimasida Zamira Egamberdievaning mexnatlari xizmatlari katta. Eslangga "Reybedrid teatri", "Haqiqat chegarasi", "Muxabbat qaxvasi", "Merlin", "Zorro niqobi", "SHerlok Xolms", "Uzuklar xukmdori", "Muxabbat va extiros", "Xaqiqat chegarasi", "Begona", "Shoxdor tulpor sayoxati" kabi katta fil'm va seriallar bugun o'zbek kino fondi arxividagi o'chmas tarjima asarlar safidan o'rin olgan. Muximi tomoshabin chet el filmini o'zbekchalashtirgan moxir tarjimonini taniydi va uning ijodiga bo'lgan xurmati ham, talabi ham yillar o'tsada so'ngani yo'q. Shoiraning turmush o'rtog'i va to'rt qizlari ham qoldi.



SHOIRA ZAMONDOSHLARI NIGOHIDA

Men baxtli ayolman — qirqta jonim bor... Bu o'tli so'zlarni she'r qilib yozganida, Zamira Egamberdieva nelarni nazarda tutgani yolg'iz o'ziga ayon. Lekin men bir haqiqatni bilaman: Zamira o'zining mushtdekkina yuragini qirq bo'lakka bo'lib, yonib yozgan shoiralardan biri edi. Afsuski, umri qisqa ekan. Shafqatsiz o'lim uni oramizdan olib ketdi. Alloh rahmatiga olgan bo'lsin.

Norqobil Jalil

Zamira Egamberdiyeva bilan faxrlaning, bunaqa Zamiralar yuz yilda bir marta dunyoga keladi

*Abdulla Oripov
(O'zbekiston xalq Qahramoni)*

Zamira opashe'riyatida sokin, xazin, qalb ko'zi bilan ko'rilgan dunyoni manzaralari, xususan abadiy uyqusizlikka mahkum etilgan, ko'z yoshlari bilan dengizni suvini sho'rlantirgan umrbod tush ko'rmaydigan baliqlar qismati, uning she'rlarida aks etgan.

Rahmon Qo'chqor (Adabiyotshunos)

“Eng yaqin yo'l-ko'ngil bilan ko'ngil orasidagi yo'l” degan hikmat bor. Zamira Egamberdiyevaning eng muhim hislati ham u bitgan eng yaxshi asarlarining yurak ehtiyoji bilan yaratilganidir. Zamiraning barcha yetuk asarlarida uning xamisha bedor qalbi urib turganini his qilasisz.

Mahmud Sa'diy

Zamira Egamberdiyeva hayot bo'lganida juda iqtidorli va hozirgi kunda mana o'zbek she'riyatini prozasini, nasrini gullatib turgan o'sha ulug' shoirlar safidan joy olgan bo'lar edi.

Jabbor Razzoq
(*O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist*)

Zamira opa butun ko'nglini she'rga to'kib yashadilar. Uning kitoblaridagi har bir she'r birinchi navbatda samimiyat bilan, pokiza bir tuyg'ular bilan, hayrat bilan sug'orilgan.

Minxojiddin Mirzo
(*O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist*)

SO'NGGI MANZIL

Zamira Egamberdieva haqida so'z ketsa, chin ma'noda “mehnatkash ijodkor” degan iborani aytishdan cho'chimayman. Biz ko'pam ko'nikolmaydigan qoliplarni aynan she'riyat maydonida Zamira betakror ijod namunalari bilan o'zgartirdi. “Ikki umrim bittasidir she'r. Olov bilan suvning o'rtasi — kun va tunning o'rtasidir she'r” yoki bo'lmasa “Bu ko'ngil ko'ksinga sig'maydi, yig'lasam yeru ko'k yig'laydi” va hokazo. Bunday misralarni yuzlab, minglab keltirishim mumkin. Lekin shoira ko'nglini, ijodkor yuragini, dardu alamini anglash, tushunish uchun lahzalar, yillar, hatto asrlar ham yetmasligini yana bir bor Zamira o'zining dilbar, xokisor she'riyati bilan isbotlab berdi. Men bejiz qayta-qayta bu hassos shoira ko'ngil dunyosi haqida to'xtalmayapman. Negaki, u butun hayoti va ijodi bilan shu Vatanning, shu yurtimizning yuragi bo'lmish Toshkentday katta shahri azimda o'zligini, o'z ko'ngil dunyosini kashf eta oldi. Unga mana shu tosh shahar, bosh shahar panoh bo'ldi va vodarig', shu yerda... so'nggi manzilini topdi!..

Ana shu so'nggi so'zlarni yozish... men uchun va bu mash'um xabarni eshitish Siz uchun ham qanchalar qayg'uli ekanligini tushunaman. Na chora? Na iloj? Taqdir ekan, yozmishi shu ekan Zamira ko'ngilining. Ayni qirchillama yoshida “qilday qirqta joni”ni tuproqqa topshirdi. Endi...

Endi uning QIRQ BIRINCHI JONI — eng samimiy va yoniq she'rlari, zalvorli “Ko'ngil ko'chirmalari” — kitoblari meros bo'lib qoldi. Hech bir mubolag'asiz aytsak bo'ladi, she'riyatimizning o'ziga xos yulduzlaridan bo'lgan Zamira Egamberdievaning she'rlari har birimizning ko'ngil mulkimizga aylanadi. Zero, o'zi yozib ketgani kabi:

*Men o'zimni Quyosh demayman,
Lek bag'rini isitgum Yerning.
Bu dunyoga boshqa kelmayman —
Umri uzun bo'ladi She'rning!*

2005 yili Toshkent shahrida vafot etgan.

SHE'RLARI

**Qancha qaynoq bo'lsa shuncha yaxshidir
Bamisli piyola ichidagi choy.
Sovimasdan ichish lozimdir
Mangu balqib tursa, turaversin oy**

**Qancha sog'insalar, tavof qil shuncha
Yo'lingga intizor bog'g'an ko'zlarni
Muxabbat yashaydi dunyo turguncha
Qadri ortaverar shirin so'zlarni.**

**Sochlari yoyilgan ayolday har tun
Gullarni yig'latib chiqadi quyosh
Har laxza g'animat yashamoq uchun
Mening vujudimda qiynaldi bardosh**

**Yuragim tiraydi, titraydi gumon
Piyola ichida qalqigan choyday
Yashaymiz xayotdan qidirib imkon
Tog'lar orasida yugurgan soyday**

**Bilaman million yil yashasa hamki
Yulduzlar ovozi yetmaydi yerga
Ming bor shukr qilsam arziydi chunki
Ko'nglimni to'kishim mumkun-ku she'rga.**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Хўжаобод жилоси: [matn] / muharrir Қамчибек Кенжа . – Т: Қўрғонтепа,-1996.-30б.
2. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasining 2010 yil 24-soni
3. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanildi.

Tuzuvchi:

O. Vohidova

